



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil «14» fevral

62-son

Toshkent shahri

**Qashqadaryo viloyatidagi kasbiy ta’lim tashkilotlarning ustavini tasdiqlash
hamda ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF–158-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Qashqadaryo viloyatidagi kasbiy ta’lim tashkilotlarning (keyingi o‘rinda-texnikum) ustavlari 1-53-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Qashqadaryo viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i** (O.Movlanov):

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Qashqadaryo viloyatidagi texnikumlar ustavlarini o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

texnikumlar faoliyatini mazkur tasdiqlangan Ustavlarga muvofiq yuritilishini doimiy nazoratga olsin;

texnikumlarning guvohnoma, muhr, peshlavha, rasmiy veb-saytlarini yangilash va boshqa rekvizitlarni almashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni nazoratga olsin.

3. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma
yordamida QR- kodni skaner qilish
orqali tekshirish mumkin